



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

# **FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR**

**III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI**

**2025-yil, 21-OKTABR**

**BUXORO – 2025**

## ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- |                    |                                                                                                      |
|--------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. B.B. Ma'murov   | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;                                                  |
| 2. Z.M. Muqimov    | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;                                   |
| 3. G.R. Akramova   | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov     | - Tillar fakulteti dekani, a'zo;                                                                     |
| 6. U.S.Amonov      | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;                                                   |
| 7. D.B.Axmedova    | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;                                               |
| 8. G.B.Rustamova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 9. G.R.Mirxanova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 10. R.A.Saidova    | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;                                                 |
| 11. Y.U.Nurova     | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 13. N.H.Hojiyeva   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 14. M.U.Usmonova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;                                       |
| 15. N.A.Bafoyeva   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                             |
| 16. N.O. Avazova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                             |
| 17. S.T. Latipova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo                                              |

## ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- |                    |                                                                                             |
|--------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. M.M. Bafayev    | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais;                                                   |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov     | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;                                          |
| 4. F.R.Rustamov    | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari                           |
| 5. L.F. Sharipova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;                                      |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;                                      |
| 7. Sh.M. Istamova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                        |
| 8. M.B. Sharipova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                        |
| 9. G.B. Rustamova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                        |
| 10. R.R. Xalilova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                        |
| 11. M.U. Usmonova  | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;                                |
| 12. F.K. Nurova    | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;                              |
| 13. N.N. Mirjonov  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                    |
| 14. M.Y. Latifova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                    |
| 15. M.A. Tilavova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                    |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo.                                    |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

### Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

### Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA FOLKLOR: OG'ZAKI IJODIY MEROSNI SAQLASH VA ELEKTRON RESURLARDA QAYTA YARATILISHI**

**Asrorbek Ahrorov Aminjon o'g'li,**

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli texnologiyalar asrida og'zaki ijodiy merosni saqlash, uni elektron resurslarga ko'chirish va zamonaviy sharoitda qayta yaratilishi jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, folklor namunalarini audio va video shaklda saqlash, elektron kutubxonalar, raqamli arxivlar hamda internet platformalarida targ'ib qilish tajribalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, folklorning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni, yoshlarning raqamli muhitda folklorga munosabati va uning transformatsiyasi ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda taqqoslash, kontent-tahlil va kuzatish usullaridan foydalanilgan. Natijada og'zaki ijodiy merosni raqamlashtirish nafaqat uni saqlab qolish, balki global miqyosda targ'ib qilishning ham eng samarali yo'li ekanini aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** folklor, raqamli texnologiyalar, og'zaki ijod, raqamlashtirish, elektron resurslar, madaniy meros.

**Abstract.** The article analyzes the processes of preserving oral creative heritage in the age of digital technologies, transferring it to electronic resources and recreating it in modern conditions. In particular, the experiences of preserving folklore samples in audio and video form, promoting them in electronic libraries, digital archives and Internet platforms are considered. Also, the role of folklore in socio-cultural life, the attitude of young people to folklore in the digital environment and its transformation are scientifically substantiated. The research used methods of comparison, content analysis and observation. As a result, it is determined that digitizing oral creative heritage is the most effective way not only to preserve it, but also to promote it on a global scale.

**Keywords:** folklore, digital technologies, oral creativity, digitization, electronic resources, cultural heritage.

**Аннотация.** В статье анализируются процессы сохранения устного творческого наследия в эпоху цифровых технологий, перевода его на электронные ресурсы и воссоздания в современных условиях. В частности, рассматривается опыт сохранения образцов фольклора в аудио- и видеоформате, их продвижения в электронных библиотеках, цифровых архивах и интернет-платформах. Научно обоснована роль фольклора в социокультурной жизни, отношение молодёжи к фольклору в цифровой среде и его трансформация. В исследовании использовались методы сравнения, контент-анализа и наблюдения. В результате установлено, что оцифровка устного творческого наследия является наиболее эффективным способом не только его сохранения, но и продвижения в глобальном масштабе.

**Ключевые слова:** фольклор, цифровые технологии, устное творчество, оцифровка, электронные ресурсы, культурное наследие.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida madaniy merosni saqlash masalasi insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Axborot oqimining keskin ortishi, texnologik yangiliklarning tezkor sur'atlarda rivojlanishi natijasida jamiyatning madaniy hayotida ham katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, xalqning asrlar davomida shakllangan og'zaki ijodiy merosi – ertaklar, dostonlar, maqol va matallar, qo'shiqlar, rivoyatlar kabi bebaho boyliklar yangi muhitga ko'chmoqda.

Folklor, avvalo, og'zaki shaklda yashab kelganligi sababli, uni asrab qolish jarayonida ko'plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. An'anaviy tarzda og'zaki meros avloddan-avlodga og'zaki

uzatilib kelgan bo'lsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda og'zaki ijodiy merosni faqatgina yozib olish emas, balki uni audio va video ko'rinishlarda, elektron bazalar va raqamli arxivlarda saqlash imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu jarayon nafaqat milliy merosni asrash, balki uni keng jamoatchilikka, jumladan, xalqaro miqyosda targ'ib qilishga ham xizmat qilmoqda.

Bugungi yoshlar internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar orqali folklor namunalariga yangicha yondashmoqda. Natijada folklorning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda uning zamonaviy ko'rinishlari – remikslar, internet memlari, animatsion hikoyalar, podkastlar shaklida ham qayta yaratilishi kuzatilmoqda. Shuningdek, xalq og'zaki ijodining raqamli muhitda qayta ishlab chiqarilishi jarayonida mualliflik huquqi, intellektual mulk va madaniy merosni asrab-avaylash bilan bog'liq qator muammolar ham mavjud. Shu sababli raqamli folklorshunoslik nafaqat merosni saqlashning texnik usullari, balki uning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini ham o'rganishni talab etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – raqamli texnologiyalar davrida og'zaki ijodiy merosni saqlash va elektron resurslarda qayta yaratilish jarayonlarini ilmiy tahlil qilish, mavjud tajribalarni o'rganish hamda istiqbollarini aniqlashdan iboratdir. Maqolada folklor namunalarining raqamlashtirilishi, ularning elektron platformalarda ommalashuvi va yoshlar dunyoqarashiga ta'siri keng muhokama qilinadi.

Folklor va uning raqamli muhitda saqlanishi masalasi so'nggi o'n yilliklarda ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Jahon folklorshunosligida "digital folklore" yoki "cyberfolklore" atamaları keng qo'llanila boshlandi. Jumladan, Howard (2012) internet folklorini global madaniyatning yangi qatlami sifatida tahlil qilib, an'anaviy og'zaki ijod namunalarining virtual muhitda o'ziga xos shakllarini aniqlagan. Blank (2009, 2018) esa raqamli folklorshunoslikning metodologik asoslarini ishlab chiqib, internet memlari, onlayn afsonalar va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaluvchi hikoyalarni zamonaviy folklor sifatida o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. O'zbek folklorshunosligida ham oxirgi yillarda raqamli texnologiyalar va folklor o'zaro aloqalari yuzasidan ayrim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Saidov (2017) og'zaki ijodiy merosni audio-video shakllarda qayd etish va raqamli arxivlar yaratish zarurligini asoslab bergan. Abdurahmonova (2020) esa internet makonida folklorning qayta yaratilishi jarayonini o'rganib, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali ertak, qo'shiq va memlarga bo'lgan qiziqishini tahlil qilgan.

Shuningdek, UNESCO (2003) tomonidan qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida Konventsiya"da og'zaki ijodiy merosni raqamli texnologiyalar yordamida hujjatlashtirish va keng jamoatchilikka yetkazish masalalari alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu hujjat xalqaro miqyosda folklori saqlashning yangi metodlari ishlab chiqilayotganidan dalolat beradi.

Rossiyalik olimlardan Bogdanov (2015) folklori elektron kutubxonalar shaklida jamlash, ularni ilmiy va ommaviy auditoriyaga taqdim etish jarayonlarini tahlil qilgan. Zhukov (2019) esa folklorning virtual muhitda qayta ishlab chiqarilishi natijasida paydo bo'layotgan yangi janrlar va ularning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatgan. Xorijiy tajribada, xususan, The American Folklife Center (Library of Congress) hamda Europeana Collections kabi yirik platformalarda folklor namunalarining raqamlashtirilgan shaklda saqlanishi va onlayn foydalanuvchilarga taqdim etilishi muhim tajribalar qatoriga kiradi. Ushbu loyihalar global darajada folklori asrash va targ'ib qilishning samarali usuli sifatida xizmat qilmoqda. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli folklorshunoslik nafaqat folklori hujjatlashtirish va saqlashning yangi yo'nalishi, balki uning zamonaviy madaniy jarayonlar bilan uyg'unlashuvini o'rganishga xizmat qiluvchi fanlararo tadqiqot sohasi sifatida shakllanmoqda.

Ushbu tadqiqotda og'zaki ijodiy merosning raqamli texnologiyalar davrida saqlanishi va elektron resurslarda qayta yaratilishi masalalarini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

Birinchidan, taqqoslash usuli qo'llanib, O'zbekiston hamda xorijiy davlatlarda og'zaki ijodiy merosni raqamlashtirish jarayonlari o'zaro solishtirildi. Bu usul folklorni saqlashda mahalliy tajribani xalqaro loyihalar bilan qiyoslash, mavjud o'xshashliklar va farqlarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, kontent-tahlil usuli asosida internet makonidagi folklor namunalarining yangi shakllari – memlar, podkastlar, animatsion hikoyalar, onlayn ertaklar – tahlil qilindi. Bu usul orqali an'anaviy folklor elementlarining raqamli muhitda qanday o'zgarishi, yangi kommunikativ vositalar orqali qanday tarqalishi o'rganildi.

Uchinchidan, kuzatish usulidan foydalanilib, ijtimoiy tarmoqlarda folklorga oid materiallarning tarqalish tezligi, ulardan foydalanuvchilarning fikr-mulohazalari hamda yoshlarning qiziqish darajasi kuzatildi. Ushbu kuzatish jarayonida Facebook, Instagram, YouTube va TikTok platformalaridagi kontentlar asosiy manba sifatida tanlandi.

To'rtinchidan, ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Jahon va o'zbek folklorshunoslari, shuningdek, UNESCO, Europeana, American Folklife Center kabi xalqaro tashkilotlarning hujjatlari hamda loyihalari asosida mavzuga oid nazariy va amaliy qarashlar tahlil qilindi.

Metodologik yondashuvlar uyg'unligi tadqiqotning ilmiy asoslangan bo'lishini ta'minladi. Shu orqali og'zaki ijodiy merosning raqamli muhitdagi mavjud holati, uni asrash mexanizmlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida xolis xulosalar chiqarishga erishildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar og'zaki ijodiy merosni asrash va uni keng ommaga yetkazishda yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Avvalo, folklor namunalarini raqamlashtirish orqali ularning yo'qolib ketish xavfi sezilarli darajada kamaymoqda. Masalan, xalq ertaklari, dostonlar, maqol va topishmoqlarni yozib olish, audio va video shaklda saqlash hamda elektron arxivlarda joylashtirish natijasida ular nafaqat ilmiy muhitda, balki keng jamoatchilik orasida ham ommalashmoqda.

1. Folklorning raqamli arxivlarda saqlanishi. So'nggi yillarda O'zbekistonda bir qator ilmiy muassasalar, jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti huzurida xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va elektron bazalar yaratish ishlari amalga oshirilmoqda. Xalqaro miqyosda esa American Folklife Center (AQSh), Europeana Collections (Yevropa) kabi platformalar bu borada ilg'or tajribaga ega. Mazkur arxivlar ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

2. Folklorning virtual muhitda qayta yaratilishi. Internet makonida folklor yangi shakllarda qayta ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, an'anaviy ertak va afsonalar asosida yaratilgan animatsion filmlar, YouTube va TikTok platformalaridagi qisqa videohikoyalar, folklor motivlariga asoslangan qo'shiqlar va remikslar bunga misol bo'la oladi. Bu jarayon folklorni yoshlar orasida yanada mashhur qilmoqda. Masalan, xalq maqollaridan yaratilgan internet memlari zamonaviy kommunikatsiya vositasiga aylangan.

3. Yoshlarning folklorga munosabati. Kuzatishlar natijasida shuni aytish mumkinki, bugungi yoshlar folklor bilan bevosita emas, balki ko'proq raqamli vositalar orqali tanishmoqda. Ularning qiziqishi ko'proq vizual va qisqa shakldagi kontentlarga qaratilgan. Shu sababli folklor materiallarini yangi formatlarda (podkast, animatsiya, infografika) taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Muammolar va cheklovlar. Folklorni raqamlashtirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, barcha folklor namunalarini qamrab olish juda murakkab, chunki og'zaki ijod doimo o'zgarishda davom etadi. Ikkinchidan, mualliflik huquqi va intellektual mulk masalalari hali to'liq yechim topmagan. Uchinchidan, ayrim hollarda folklorning raqamli shaklda qayta ishlab chiqarilishi uning asl mazmuni va estetik qimmatini yo'qotish xavfini tug'diradi.

5. Ilmiy va amaliy ahamiyati. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, og'zaki ijodiy merosni raqamlashtirish uni asrashning eng samarali yo'llaridan biridir. Shu bilan birga, bu jarayon

yosh avlodning milliy o'zlikni anglashida, xalq merosiga qiziqishini oshirishda va uni global miqyosda targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Folklorning raqamli platformalarda qayta yaratilishi esa madaniy merosni zamonaviy kommunikatsiya bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar og'zaki ijodiy merosni asrab-avaylash va uni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim omilga aylanmoqda. Avloddan-avlodga og'zaki shaklda o'tib kelgan ertak, doston, qo'shiq, maqol va rivoyatlar bugungi kunda raqamli muhitda qayta tiklanib, yanada kengroq auditoriyaga taqdim etilmoqda.

Birinchidan, og'zaki ijodiy merosni raqamlashtirish natijasida ularning yo'qolib ketish xavfi kamaymoqda, ilmiy tadqiqotlar uchun boy manba yaratilmoqda. Ikkinchidan, folklorning internet va elektron platformalarda qayta yaratilishi uning yoshlar orasida ommalashuviga, milliy o'zlikni anglash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Uchinchidan, raqamli folklorshunoslik an'anaviy folklor tadqiqotlarini yangi bosqichga olib chiqib, fanlararo yondashuv imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, folklorni raqamlashtirish jarayonida muammolar ham mavjud. Jumladan, intellektual mulk va mualliflik huquqiga oid masalalar, folklorning asl mazmuni va estetik qiyofasini saqlab qolish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar davrida og'zaki ijodiy merosni asrash va targ'ib qilish jarayonlari ijobiy natijalar bermoqda. Bu jarayon nafaqat milliy madaniyatni asrab qolish, balki uni global miqyosda keng targ'ib etishning ham eng samarali usullaridan biri sifatida qaralmoqda. Kelajakda bu yo'nalishda maxsus elektron platformalar, ochiq raqamli kutubxonalar va interaktiv o'quv resurslarini yaratish folklorni ilmiy va amaliy jihatdan yanada rivojlantirish imkonini beradi.

#### **References:**

- 1.Abdurahmonova, D. (2020). Internet makonida folklorning transformatsiyasi: yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar tajribasi. Toshkent: Fan.
- 2.Blank, T. J. (2009). Folklore and the Internet: Vernacular expression in a digital world. Logan: Utah State University Press.
- 3.Blank, T. J. (2018). The folkloristics of digital culture. Logan: Utah State University Press.
- 4.Bogdanov, K. (2015). Digital archives of folklore: Problems and perspectives. Moscow: Nauka.
- 5.Howard, R. G. (2012). Digital Jesus: The making of a new Christian fundamentalist community on the internet. New York: NYU Press.
- 6.Saidov, A. (2017). O'zbek folklorini raqamlashtirishning nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- 7.UNESCO. (2003). Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris: UNESCO.